Ключевые слова: добавленная стоимость, база налога на добавленную стоимость, налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, налоговое бремя, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

KIRISH

Mamlakatimiz ishlab chiqarish bozorini raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, millii valyutamizni muntazam ravishda mustahkamlab borish, islohotlarni keng jori etish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliq yukini kamai tirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va sarmoyadorlarga keng yo'l ochib berish, biznes vakillariga imkoniyatlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar ishlab chiqish, asosiy strategik harakatlarimizning bosh omili sifatida belgilangan.

Soliqqa tortish har qandai davlatning moliyaviy siyosatining asosii tarkibii qismi bo'lib, daromadlarni shakllantirish va iqtisodii barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda o'sib borayotgan iqtisodiyot sifatida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda QQS ma'muriyati sohasida o'ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qildi. O'zbekistonda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tartibi va QQS



ma'muriyatining o'ziga xos jihatlari haqida umumii ma'lumot berib, mamlakatda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay muhit yaratish muhimdir. Bundan tashqari, O'zbekistonning soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va QQS ma'muriyatiga bo'lgan yondashuvi raqamlashtirish va xalqaro savdodagi global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu esa O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va oqibatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Rus iqtisodii lug'atida QQSni aniqlashni quyidagicha ifodalagan: "Korxonada tovar va xizmatlar sotishdan olinadigan tushumlar hamda tashqi bozorning boshqa ishlab chiqaruvchilaridan olingan xom-ashe va yarim tayyor mahsulotlarning narxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan ushbu korxonaning qiymatini oshiruvchi miqdorda soliq undiriladi (Raizberg, 2008).

Bir-biriga yaqin fikrlar bilan mamlakat qonunchiligida belgilangan ta'riflarni qo'llab-quvvatlagan olimlardan Polyak, Romanovskiilarning (2008) fikricha: "Qo'shilgan qiymat solig'i – ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida yaratilgan va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati va ishlab chiqarish hamda aylanma mablag'larga sarflangan moddii xarajatlarning qiymati sifatida aniqlangan qo'shimcha qiymatning bir qismini budgetga olib chiqish shaklidir".

Toshmatov (2012) "Qo'shilgan qiymat solig'i bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan sotilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlarning bozor narxiga nisbatan hisoblangan bilvosita soliqdir deya ta'riflagan".

Pavlova va Dorojkolarning (2014) fikricha "agar QQSning soliq stavkalarini kamai tirsak, unda budget daromadlari sezilarli ravishda kamayadi, bu esa mablag'lar taqsimlanishining ko'payishiga olib keladi. Boshqa tomondan agar ta'riflarni ko'rib chiqsak, ko'pchilik tashkilotlar soliqlarni to'lashdan buyin tovlashni kuchaytiradilar, bunga ruxsat berilmaydi, chunki davlat budjeti kamroq moliyavii resurslarga ega bo'ladi"deb hisoblaydi.

Iqtisodii adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini «Evropacha» soliq deb ham atashadi. XX asning o'rtalarida germaniyalik iqtisodchi V. Fon Simens nomi bilan bog'lashadiki, u «tozalanma soliqni» jorii etishni taklif qildi. Biroq bu amalga oshmadi (Romanovskogo, Vrublevskoi, 2007).

Qo'shilgan qiymat solig'i fransuz iqtisodchisi Moris Lore (1958) nomi bilan bog'liq bo'lib, 1954 yilda Kot-d'lvar fransuz koloniyasida yangi soliq sifatida sinovdan o'tkazilgan, 1958 yilda esa Fransiyada jorii etilgan. Keyinchalik Yevropaning barcha mamlakatlarga 1972 yil oxirigacha o'z hududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun QQSni jorii etish bo'yicha buyurtma berishgan. Hozirgi kunda 137 ta mamlakatda QQS jorii etilgan.

Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabilar (2016) esa qo'shilgan qiymat solig'i va davlat xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, ijtimoi farovonlikni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini qisqartirish, natijada esa QQS stavkasini ham pasaytirishni ilgari suradi.

Sabine Freizer tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat" (2006): Ushbu tadqiqotchi tomonidan O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishning umumii ko'rinishini beradi va soliq yig'ish mexanizmlarini takomillashtirish muammolari va imkoniyatlarini yoritadi. Muallif soliqlarni undirish jarayonini yaxshilashga soliq to'lovchilarni o'qitish va tushuntirish ishlarini yaxshilash, shaffoflik va mas'uliyatni oshirish, soliq ma'muriyatchiligi tizimini modernizasiya qilish orqali erishish mumkinligini taklif qiladi.

Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) tomonidan "O'tish davridagi mamlakatlarda soliq islohotlarining soliq qonunchiligiga ta'siri: U zbekistondan olingan dalillar". Mualliflarning fikricha, soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasai tirishga qaratilgan soliq islohotlari soliqqa rioya etish va daromadlarni yig'ishni oshirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan qiyosiy tahlil qilish, ilmiy abstraktsiya, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xo'jalik operatsiyalarining shaffofligini oshirish, soliq xavflarini kamaytirish va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblarda raqamli boshqarish mexanizmlarini joriy etish dolzab xisoblanadi chunki Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan tovarlarni aynan bitta yetkazib berish zanjiri bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishda elektron hisobvaraqa-fakturalarni xavf darajasiga qarab real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish tizimini joriy etish yuzasidan bir necha bor takidlab o'tilgan.

Mazkur masalani ijobiy xal etish maqsadida elektron hisobvaraqa-fakturalarning xavf darajasini aniqlash va ularda aks ettirilgan operatsiyalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Ushbu Nizom elektron hisobvaraƒ-fakturalarning (keyingi o'rinlarda — EHF) xavf darajasini baholash, ularni tegishli toifalarga ajratish tartibini, shuningdek, xavf darajasiga qarab EHFlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobga olish xususiyatlarini belgilashi lozim bo'ladi. Nizomning amal qilishi faoliyat turi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan EHFlar tizimida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan barcha EHFlarga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanish lozim Xususan:

EHFlar xavf darajasini baholash tizimi - amalga kiritilgan mezonlar va algoritmlar asosida har bir EHFning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishdagi xavf darajasini real vaqt rejimida aniqlovchi tizim;

EHFning xavf darajasi - har bir EHFga beriladigan va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlarni bajarish tartibini aniqlashda hisobga olinadigan, soliqqa oid huquqbuzarliklar ehtimolligi darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich;

xavf darajasi aniqlangan EHFlar reestri - belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tomonidan rasmiylashtirilgan EHFlar to'g'risidagi ma'lumotlar majmuasi bo'lib, unda ushbu EHFlarga belgilangan xavf darajasi, qo'shilgan qiymat solig'i summasi, uning to'langanligi holati hamda mazkur xavf darajasini inobatga olgan holda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobga olish tartibini qo'llash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar to'plami;

insofli soliq to'lovchi - belgilangan ishonchilik mezonlariga javob beradigan soliq to'lovchi bo'lib, unga yetarli darajadagi aylanma, aktivlar va xodimlar soni, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishi, shuningdek soliq va boshqa qonunchilik talablariga rioya qilish kabi mezonlarga javob beradi;

shubhali soliq to'lovchi – xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olishga doir belgilangan talablarga rioya etmaslikda, soliq majburiyatlarini to'liq yoki o'z vaqtida bajarmaslikda, aniq iqtisodiy maqsadga ega bo'lmagan bitimlarda ishtirok etishda yoxud budjet oldidagi majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun tavakkalchiliklarni keltirib chiqaruvchi boshqa xatti-harakatlarda ifodalanadigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish alomatlari aniqlangan soliq to'lovchilar kiradi.

Axborot tizimi asosida aniqlangan yuqori xavf darajasiga ega EHFlarning ulushi hisobot davrida rasmiylashtirilgan jami EHFlar sonining o'n foizidan oshmasligi lozim.

Bundan tashqari, EHFlarning xavf darajasini baholash tartibi ishlab chiqishga quyidagilarini keltirish mumkin. EHFlarga beriladigan xavf darajasi soliq organlarining avtomatlashtirilgan tizimi tomonidan quyidagi manbalardan olinadigan ma'lumotlar asosida aniqlanadi:

soliq organlarining axborot tizimlaridagi soliq va moliyaviy hisobotlarni, shuningdek soliq to'lovchilarning ma'lumotlari;

davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari tomonidan soliq organlari bilan axborot almashinuvi doirasida taqdim etiladigan ma'lumotlar;

xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan olingan axborot;

soliq tekshiruvlari materiallari;

tekshiruvdan oldingi tahlil doirasida aniqlangan ma'lumotlar;

sud qarorlaridagi ma'lumotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hujjatlari, shu jumladan hukmlar, qarorlar, ajrimlar va boshqa protsessual hujjatlar;

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalardan olingan boshqa axborot hisoblanadi.

EHFlarning xavf darajasi mezonlari O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan quyidagilarni inobatga olgan holda belgilanadi:

soliq to'lovchining tarixi;

soliq to'lovchining moliyaviy va mulkiy holati;

soliq to'lovchining toifasi;

soliq to'lovchining ro'yxatga olish ma'lumotlari;

yuridik shaxsning muassislari va rahbari to'g'risidagi ma'lumotlar;

soliq to'lovchining moliya-xo'jalik operatsiyalari xususiyati;

soliq to'lovchi tomonidan EHFlarni rasmiylashtirish tartibi;

EHFning xavf darajasini tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar.

EHFning xavf darajasini boshqarish tizimi strategiyasi va taktikasini, axborot yig'ish va uni qayta ishlash, EHFning xavf darajasini tahlil qilish va baholash, EHFning xavf darajasini boshqarishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish Soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. EHF xavf darajasi mezonlari ro'yxati ochiq holatda Soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.



EHFlar xavf darajalari bo'yicha quyidagi toifalarga muvofiq tasniflanishi lozim bo'ladi:

xavf darajasi past EHF;

xavf darajasi yuqori EHF.

Xavf darajasi past EHFlar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish ehtimoli kam yoki umuman yo'q deb e'tirof etiladigan operatsiyalar bo'yicha EHFlarga nisbatan belgilanadi.

Xavf darajasi yuqori EHF soliq qonunchiligini buzish ehtimoli yuqori bo'lgan, shu jumladan soliqni to'lamaslik alomatlari mavjud bo'lgan operatsiyalar bo'yicha EHFlarga nisbatan belgilanadi.

EHFlarni baholash, xavf darajasini aniqlash tizimida nazarda tutilgan har bir mezon bo'yicha tegishli ballar sonini qo'shish orqali avtomatlashtirilgan tarzda;

EHFlarni xavf darajalari bo'yicha tasniflash, ushbu Nizomga muvofiq qo'llaniladigan har bir mezon bo'yicha hisoblangan umumiy ball asosida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining tegishli toifaga kiritilishiga qarab, EHFlarga beriladigan xavf darajasi quyidagicha aniqlanadi:

insofli soliq to'lovchilar reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan EHFlar avtomatik ravishda past xavf darajasiga kiritiladi;

shubhali soliq to'lovchilar reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan EHFlar avtomatik ravishda yuqori xavf darajasiga kiritiladi;

insofli soliq to'lovchilar yoki shubhali soliq to'lovchilar reestriga kiritilganmagan soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan EHFlarning xavf darajasi avtomatlashtirilgan tizim tomonidan aniqlanadi. EHFga berilgan xavf darajasi avtomatik tarzda shakllantiriladi va soliq to'lovchi tomonidan uni rasmiylashtirish va taqdim etishda ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar soliq siri hisoblanmaydi. Soliq to'lovchi EHF rasmiylashtirilgan oydan keyingi oying 20 sanasiga qadar EHFning avtomatik ravishda yuqori xavf darajasiga kiritilishi munosabati bilan tushuntirishlar va (yoki) hujjatlarni taqdim etishga haqli.

Shungdek, belgilangan xavf darajasini inobatga olgan holda EHFlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibini ham ishlab chiqish lozim. Xavf darajasini baholash tizimidan foydalangan holda olingan EHFlarni tahlil qilish natijalari soliq to'lovchilar tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha hisobga olinishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini aniqlash uchun foydalaniladi. Belgilangan tartibda xavfning yuqori darajasi toifasiga kiritilgan EHFlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi ushbu summa davlat budgetiga haqiqatda to'langan taqdirda xaridorda hisobga olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash naqd pulsiz shaklda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali tegishli EHFning identifikatsiya raqamini majburiy ko'rsatgan holda amalga oshiriladi.

EHFlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash:

tegishli EHFni rasmiylashtirgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan o'z soliq majburiyatini bajarish tartibida;

tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to'langan summani yetkazib beruvchining soliq majburiyatini bajarish hisobiga o'tkazgan holda amalga oshiriladi. Xavfning yuqori darajasiga kiritilgan EHFlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'liq to'lanmagan taqdirda, soliq summasi faqat haqiqatda to'langan summa doirasida hisobga olinadi.

Tovarlar (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan yuqori xavf darajasiga mansub bo'lgan bir nechta EHF bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini qisman to'lash amalga oshirilgan taqdirda, to'lov identifikatsiya raqamlari ko'rsatilmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bunda to'langan soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchilarda EHFlar bo'yicha hisobga olish maqsadlari uchun ularni tegishli soliq davri doirasida sana va vaqt bo'yicha rasmiylashtirish tartibida avtomatik tarzda taqsimlanadi. Tovarlar (xizmatlarni) sotib oluvchi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan tartibda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchining shaxsiy hisobvarag'ida aks ettiriladi va budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining jami summasini aniqlashda hisobga olinadi. Agar tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan tartibda budgetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olish uchun qabul qilingan soliqni hisobga olgan holda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasidan ortiq bo'lsa, tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchida hosil bo'lgan farq Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga hisobga olinadi.

Ilgari yuqori xavf darajasiga kiritilgan, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i to'langan qo'shimcha yoki tuzatilgan EHF asosida soliq bazasiga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, hisobga olingan soliq summasi kiritilgan o'zgartirishlarni inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi. Soliq organlari tegishli EHF rasmiylashtirilgan xo'jalik operatsiyasi amalga oshirilganligini tasdiqlash maqsadida soliq tekshiruvlarini o'tkazishga haqli. Soliq tekshiruvda EHFda aks ettirilgan qalbaki yoki soxta bitim fakti aniqlangan taqdirda, soliq organlari qo'shilgan qiymat solig'ining budgetga to'langanligidan qat'iy nazar, tovarlarni (xizmatlarni) sotib oluvchida hisobga



olishni bekor qilishga yoxud unga tuzatish kiritishga haqli. Bunday EHFlar bo'yicha to'langan soliq summaları qaytarilmaydi.

EHFlar hisobini yuritish esa Soliq qo'mitasi xavf darajasini hisobga olgan holda EHFlarning markazlashtirilgan elektron reestrini yuritadi. Reestr EHFlar axborot tizimidan kelib tushadigan ma'lumotlar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida avtomatlashtirilgan rejimda shakllantiriladi va yuritiladi.

Reestrqa quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

EHFning identifikatsiya raqami;

EHFni rasmiylashtirish sanasi va vaqti;

yetakzib beruvchi va xaridorning identifikatsiya ma'lumotlari;

qo'shilgan qiymat solig'i miqdori;

belgilangan xavf toifasi;

soliq to'langanligi haqidagi ma'lumotlar;

EHFning holati.

Reestrda quyidagi hollarda avtomatik tarzda yangilanadi:

EHFni rasmiylashtirish, tuzatish yoki bekor qilishda;

xavf darajasi belgilanishi yoki o'zgartirilishida;

soliq to'langanligi haqidagi ma'lumotlar kelib tushganda;

EHF holati o'zgartirilganda. Reestrda mavjud bo'lgan axborotdan foydalanish soliq to'lovchilarga soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish xamda ruyxatdan chiqarishdagi muammolar yana biri bu QQS guvohnomasini to'xtatib qo'yish tadbirkorlar faoliyatini cheklab qo'ymoqda, shuningdek, QQS to'loviga majburiy o'tish uchun ariza avtomat shakllanmaganligi sababli ularda ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarmoqda.

Misol uchun: 2024-yilda 5 022 ta yuridik shaxs QQS to'lovchisi sifatida soliq boshqarmalarida ro'yxatga olingan bo'lsada, ulardan QQS guvohnomasini olish uchun qo'shimcha ravishda ariza talab qilingan.

Ma'lumot uchun: 20.05.2025 y. holatiga QQS to'lovchi 56425 ta sub'ektning 12,7 trln.so'm QQSdan qarzi mavjud, shundan QQS maxsus guvohnoma olmagan 6 491 ta sub'ektda 1 trln.so'mni tashkil qiladi.

Taklifimiz esa soliq ma'murchiligida QQS to'lashga o'tgan tadbirkorlarga bir vaqtning o'zida QQS guvohnomasini berish tizimini yo'lga qo'yish. Bunda, majburiy tartibda QQS to'lashga o'tgan yoki davlat ro'yxatidan o'tayotgan jarayonida QQS to'lash rejimini tanlagan sub'ektlarning QQS guvohnomasini olish uchun arizani inson omilisiz avtomat ravishda yuborish imkoniyatini yaratish.

Natijada Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi, QQS to'lovchilar uchun ortiqcha vaqt sarflanishi va ortiqcha sarf xarajatlarning oldi olinadi hamda soliq to'lovchilarga qulaylik yaratiladi. Ozarbayjonda soliq to'lovchilar tomonidan "e-Taxes" elektron tizimi orqali elektron ariza yuboriladi. Qozog'iston 2016-yil 1-apreldan QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning shakli chiqarib tashlandi va endi u ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mansabdor shaxsining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat shaklida taqdim etiladi.

Amaldagi qonunchilikda, budget tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlari va xalqaro horijiy moliyaviy tashkilotlardan (XMI/ XHMT) jalb qilingan tashqi qarzi hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvargacha qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan bo'lib, to'langan QQS summaları tovar (xizmat) tannarxiga kiritilib QQS zanjirining uzilishiga olib kelmoqda.

Taklif esa XMI/XHMT mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida bajarilayotgan ishlar uchun zarur bo'lgan tovar(xizmat)lar xarid qilinayotganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 1 553 ta korxonadan 1 866,4 mlrd.so'mlik tushumlar ta'minlanishiga xizmat qiladi. Loyiha doirasida ishtirok etayotgan korxonalar tomonidan imtiyozlar foydalanilmagan holda tovarlar (xizmatlar) QQS bilan xarid qilingan. Mazkur holatda XMI/XHMTning qarzi mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ishtirokchilariga to'langan QQS summasini hisobga olish, hamda hosil bo'lgan ortiqcha to'lov summasini qaytarish so'ralmoqda. Shuningdek, Soliq kodeksining 267-moddasida realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi hisobga olinmasligi belgilangan. Loyiha doirasida import qilinadigan tovarlar QQSdan ozod qilinganligi, ichki bozorda ushbu loyihalar uchun realizatsiya qilinadigan tovarlar summasiga mos ravishda QQS summasi hisobga olinmasligi sababli mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import tovarlar bilan raqobat qilish imkonini cheklamoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashirin iqtisodiyotni kamai tirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida tovarlar (ish-xizmatlar) ning bozor narxini aniqlashning inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizimini amalga oshirish etish soliqning adolatlilik tamoi ilining ta'minlanishi hamda soliqdan asossiz qochish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

elektron hisobvaraƒ-fakturalarni xavf darajasiga qarab real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy mahsulni ishlab chiqsin va hamda ushbu dasturni doimiy takomillashtirib borish choralarini ko'rish;

soliq to'lovchining shaxsiy kabinetida elektron hisobvaraƒ-fakturalarning xavf darajasini aks ettirgan holda to'lov hujjatlarini shakllantirish va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyati bajarilishini nazorat qilish funksiyasini yaratish;

ushbu mexanizmni qo'llash masalalari va uning zaruriyati hamda lozim darajada ehtiyotkorlik qilishdagi ahamiyati haqida soliq to'lovchilar o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong (2019) The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform. // China Economic Review. Volume 54, April 2019. – Pages 135-146
2. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. (2016) Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // Procedia Economics and Finance. Volume 36,. Pages 336-344.
3. Sabine Freizer (2006) tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat":<https://documents1.worldbank.org/curated/en/542691624154434845/text/Uzbekistan-Tax-Administration-Reform-Project.txt>
4. Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) https://www.files.ethz.ch/isn/139068/643172_sa231.pdf
5. Завалишина (2014) / Ю. С. Подлубнова // Дергачевские чтения – 2014. Русская литература: типы художественного сознания и диалог культурно-национальных традиций : материалы XI Всероссийской научной конференции с международным участием, Екатеринбург, 6–7 октября 2014 г.
6. Завалишина И. (2005) Солиқлар: назария ва амалиёт. Т: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 2005. – 539 б
7. Кодекс (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси - Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи.- 640 б.
8. Қарор (2020) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Қўшилган қиймат солиғи ҳамда чет эл юридик шахслари билан боғлиқ солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 14-август қарори
9. Қарор (2021) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Солиқ тўловчиларни ҳисобга олишни янада такомиллаштириш ва қўшилган қиймат солиғининг ўрнини қоплаш тартибини соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 22-сентябрда 595-сонли қарори.
10. Морис Лоре (1958) Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. 4-е изд. — И.Д Питер "Во Франции он стал применяться с 1958 г"
11. Павлова Е.В., Дорожко Д.А. (2014) Безработица как социально-экономическое явление в современной экономике. Проблемы безработицы в Российской Федерации и меры по её снижению // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Экономика и управление.. № 3 (18). С. 29–31. №2.
12. Райзберг, Б.А. (2008) Современный экономический словарь [Текст] / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА-М., – 512 с.
13. Романовский М.В. (2008) Налоги и налогообложение: налог на добавленную стоимость/М.В. Романовский, О.В.Врублевская. – СПб.: Питер., – 576 с.
14. Романовского М.В., Врублевской О.В. (2007) Налоги и налогообложение: учебник [Текст] / под ред. М.В.Романовского, О.В. Врублевской. – 6-е изд. – СПб.: Питер, – 491 с.
15. Тошматов Ш.А. (2012) Қўшилган қиймат солиғи. Монография.-Т: "Молия", 15 б; 160 б.
16. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.
17. Нормурзаев У. Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00. 07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>